

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**INSON KAPITALINING SHAKLLANISHIDA TA'LIM TIZIMINING
O'RNI VA ROLI**

Kazimov Jamshid Shamshiddinovich

Qo'qon davlat universiteti pedagogika kafedrası PhD dotsenti

Ozodbek Ilyosjon o'g'li

*Qo'qon davlat universiteti Maktab menejmenti 401 guruh
talabasi Maxammadjonov*

Annotatsiya: *Ta'limning mohiyatini belgilab beruvchi tamoyillardan biri ham uning insonga oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun o'z qobiliyatlaridan foydalanishni o'rgatishidir. Shu bilan birga ta'lim aslida mutlaqo bir innovasion soha bo'lib, u doimo yangi bilim va texnologiyalarni qo'llashni talab etadi.*

Kalit so'zlar: *Inson kapitali, ta'lim tizimi, oliy ta'lim tizimi.*

Аннотация: *Один из принципов, определяющих сущность образования, заключается в том, что оно учит человека использовать свои способности для достижения поставленных им целей. При этом образование — это полностью инновационная сфера, постоянно требующая применения новых знаний и технологий.*

Ключевые слова: *Человеческий капитал, система образования, система высшего образования.*

Abstract: *One of the principles that defines the essence of education is that it teaches a person to use his abilities to achieve the goals he sets for himself. At the same time, education is actually a completely innovative field, which constantly requires the application of new knowledge and technologies.*

Keywords: *Human capital, education system, higher education system.*

Har qanday iqtisodiy tizim o'ziga xos iqtisodiy qonunlar va shunga mos iqtisodiy kategoriyalarga ega bo'ladi. Bu iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar ma'lum bir makon va zamonda amal qiladi. Insoniyat paydo bo'libdiki, to hozirgi kunga qadar insonni iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini turli darajalarda baholanib shunga xos iqtisodiy tushuncha va kategoriyalar ishlab chiqilgan. XVIII-asrda insonni ishlab chiqarishning shaxsiy omili sifatida qarab uni ishchi kuchi, mehnat resurslari deb e'tirof etganlar va shu asosda iqtisodiyotda ishchi kuchi, mehnat resurslari kategoriyasi paydo bo'lgan. Bugungi kunga kelib insonni iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etish ko'lami kengayib bordi. Fan texnikaning jadal rivojlanishi bilimlar, ko'nikmalar, mahorat inson qobiliyatlarini birinchi o'ringa ko'tardi. Bevosita inson iqtisodiyotni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Inson endi ishlab chiqarishning qo'shimcha resursi emas, balki o'z qobiliyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etuvchi, yangi innovasiyalarni yara tuvchi noyob resursga

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

aylandi. Inson xodim sifatida o'z mehnatining natijasini taqsimlashda, mulkda, foydada ishtirok etish tizimi orqali korxonalarni boshqarishda ishtirok eta boshladi. Bu esa iqtisodiyotda inson kapitali tushunchasini paydo bo'lishiga za min yaratdi.

Aynan shu sababli inson kapitali nazariyasida aholining ta'lim darajasi uning asosiy qiymatini tashkil etuvchi muhim komponent hisoblanadi, ta'lim olish va o'z bilim-ko'nikmalarini oshirish esa inson mehnat faoliyatining tarkibiy qismi deb tan olinadi [1].

O'z davrida ulug' rus kimyogar-olimi D.I.Mendeleyev «Ta'lim insonning sarflagan vaqt va mehnati evaziga orttirgan insoniy donoligi va bebaho kapitalidir. Haqiqiy o'qimishli kishi qachonki uning bilimlari va g'oyalari hukumatning yoki jamiyatning ehtiyoji mavjud bo'lganida o'z o'rnini topadi, aks holda u ortiqchadir», deb yozgan edi. O'qimishli, ziyoli kishilarning kapitali haqiqatan ham ularning olgan ta'limi – orttirgan bilim va ko'nikmalaridir. Inson kapitalining turlicha ta'rifi va talqinlari bo'lishidan qat'iy nazar, uning tamalini insonda pirovard natijada bilim, saviya, ko'nikma, mahorat kabi o'ziga xos xususiyat va xislatlarni shakllantirgan ta'lim tashkil etishi bugungi kunda barcha biladigan haqiqat. Ta'limsiz hech qanday inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish yoki foyda olish mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki, ta'lim inson kapitalining asosiy komponentlaridan biridir va u ta'lim tizimi, ta'lim xizmati, ta'limning sifati va ijtimoiy hamkorlik kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'lim kapitalini insonlarning ta'limi (boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim) va kasbiy ta'lim (qayta tayyorlash, malaka oshirish) jarayonlari uchun umr bo'yi davlat, oila, jamiyat, homiyilar tarafidan sarf etilgan mablag'lar tashkil etadi. Bu mablag'lar inson kapitali shakllanishi uchun uzoq vaqt davomida sistemali ravishda sarflanadi, chunki ta'lim jarayoni ta'lim turiga qarab bir necha yil (oy, hafta) davom etadi. Ta'lim konkret bir shaxs uchun ma'lum bir hajmdagi xarajatlarni ham talab qiladi (shartnoma to'lovlari, ta'lim olish davrida yashash uchun va o'qish uchun kerakli ashyolar- turarjoy, elektronik jihozlar, kitobdaftar, idora ashyolari va hokozolar uchun sarflamalar). Ikkinchi mutaxassislik, sirtqi va kechki ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash kabi ta'lim turlarida o'z bilimini oshirayotgan shaxsning ba'zan o'z imkoniyatlari darajasida bilan mehnat qila olmasligi mumkin, shuningdek, uning mehnati samaradorligi pasayishi, binobarin, oladigan daromadini kamayishi mumkin. Bu bilvosita iqtisodiy zararlar ham ta'lim uchun ketgan xarajatlar jumlasiga kiradi. Olingan ta'lim, bilim va ko'nikmalar vaqt o'tishi bilan eskirishi va o'z qiymatini yo'qotishi mumkin. Shu sababli inson kapitalining o'zagini tashkil etuvchi ta'lim va bilim doimiy yangilanib va takomillashtirilib turishi kerak. Keyingi chorak asrda G'arb mamlakatlarida vujudga kelgan «Long live learning» («Umr bo'yi ta'lim olish») shiorining negizida ham zamonaviy ishchi va mutaxassislarning doimiy o'qish-izlanishlarga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi* .

Masalaning har bir inson uchun juda qiziqarli va aloqador bir jihati bor: bu esa ta'lim va tarbiya saviyasining inson umri davomiyligi va hayoti davomida ega bo'ladigan

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

turmush darajasi saviyasi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi masalasidir. AQSHdagi Kaliforniya universiteti olimlarining tadqiqotlari natijalariga ko'ra insonning ta'lim (intellektual) saviyasi bilan uning umr ko'rish uzunligi o'rtasida bog'liqlik mavjud ekan. Insonning 35 yoshiga qadar ta'lim olgan har yili oxir-oqibatda uning umriga bir yarim yil umr qo'shadi. O'rta ma'lumotli kishilar o'rtasidagi o'lim holatlari oliy ma'lumotli kishilar orasida bo'lganidan 54 foyiz yuqoridir. 25 yoshigacha tugallangan oliy ma'lumot olgan kishilarning o'rtacha umri o'rta ma'lumot olganlarnikidan yetti yarim yil uzoqroq davom etadi. Demak, ta'lim olish natijasida orttirilgan bilimlar insonning uzoq umr ko'rishiga yordam beradi va natija o'laroq ta'lim maxsus sosiobiologik jarayondir [3]. Ta'limli insonlarning atrofidagi kishilar, yor-birodarlari ham ayni guruhdagi kishilar bo'lgani uchun ular bilan do'stona va sog'lom munosabatlar mavjud bo'ladi. Ushbu faktorlarning barchasi ta'lim olgan insonning boshqalarga ko'ra yanada baxtliroq yashashini ko'rsatadi [4]. Ta'limning mohiyatini belgilab beruvchi tamoyillardan biri ham uning insonga oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun o'z qobiliyatlaridan foydalanishni o'rgatishidir. Shu bilan birga ta'lim aslida mutlaqo bir innovasion soha bo'lib, u doimo yangi bilim va texnologiyalarni qo'llashni talab etadi. Shu sababli ta'lim sohasida ishlayotgan kadrlar ham har doim o'zining bilim va ko'nikmalarini boyitib boruvchi, shu bilan birga fandagi eng yangi g'oyalar, tamoyillar va konsepsiyalarni o'quvchilar va talabalar armiyasiga «transfert» qiladigan toifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bocharova I.O. Rol sovremennogo obrazovaniya v razvitii chelovecheskogo potentsiala > economyar.narod.ru/bocharova.pdf (December, 2014)
2. Qarang: Xolina L.I. Chelovecheskiy kapital i obrazovaniye kak yego glavnaya sostavlyayushchaya // ETAP: Ekonomicheskaya Teoriya, Analiz, Praktika, №1, 2009 > www.litera.inst-et.ru/.../20110221152642file.pdf (December; 2014) 78
3. Qarang: Leras-Muney, Adriana. The Relationship Between Education and Adult Mortality in the U.S. // Review of Economic Studies, Vol. 72, No.1: 189- 221, January 2005; Understanding Differences in Health behaviors by Education // Journal of Health Economics, Vol. 29, No.1: 1-28, January 2010. (joint with David Cutler); Understanding Differences in Health behaviors by Education > www.econ.ucla.edu/alleras/research/papers/Paper_July_2009.pdf (December; 2014).